

Bir rivoyat tahlili

Z.Isafov Qo‘qo‘n DPI dotsenti,

U. Qosimova magistrant

Boshlang‘ich sinf o‘qish kitobi darsliklarida milliy o‘zlikni ahqlash, boy ma‘naviy merosimiz haqida bolalarning dastlabki tasavvurlarini shakllantirishga xizmat qiladigan matnlar keltirilgan. Ushbu darsliklarda o‘quvchilarga ulug‘ allomalar hayotida bo‘lgan ibratli voqealar rivoyat shaklida yoki zamondosh yozuvchilarimizning badiiy asarlari hamda allomalar ijodidan namunalar berilgan.

Fikr yuritmoqchi bo‘lganimiz 3-sinf o‘qish darsligidagi (Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti-matbaa ijodiy uyi – 2014) “Ibn Sinoning shogirdlari” rivoyati haqidadir. Rivoyat darslikning “Ulug‘lardan o‘rganmoq – oqillik” nomli bo‘limida keltirilgan. (9-bo‘lim 127-bet) Bo‘limning nomi ham o‘quvchiga ma‘naviy tarbiya beradi, ya‘ni ulug‘ insonlar hayotidagi ibratli voqealarni, ularning ezgu fazilatlarini o‘rganmoq, ibrat olmoq ham oqil insonga xos xislat ekanligini o‘quvchiga uqtirish lozim. Ibn Sino bobomiz nafaqat tabobat balki falsafa, mantiq boshqa yo‘nalishlarda ham ijod qilgan va boy ma‘naviy meros qoldirgan. U umri davomida 280 dan ortiq asar yaratdi. Dunyoga “Avitsenna” nomi bilan mashhur bo‘lgan bobomiz, tibbiyot ilmida olimlarning olimi ediki, unga buyuk alloma deb ta‘rif berib o‘tiladi¹.

Shu o‘rinda rivoyat so‘zining ta‘rifga to‘xtalib o‘tsak. Rivoyat arabcha “hikoya qilmoq” ma‘nosini anglatadi, voqea-hodisalarning inson faoliyatidagi ba‘zan uydirmalar, ba‘zan real tasvirlovchi og‘zaki hikoya janridir. Hajmi qisqa, ikki yoki ucn epizoddan tashkil topadi, an‘anaviy uslibiy shaklga ega bo‘lmaydi. Odatda oddiy bir hikoyachi tomonidan talqin qilinadi. Tarixiy rivoyat biror shaxs, xalq qahramonlari faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, axloq va odobning ideal me‘yorlari tashviq etiladi, muayyan faktlar haqida axborot beriladi².

Matn 203 so‘zdan 4 xatboshidan iborat bo‘lib, 3-sinf o‘qish faniga qo‘yilgan DTS talablariga ko‘ra o‘quvchi matnni 3-3,5 minut oralig‘ida ifodali va obrazli o‘qib berishi lozim³. Matn alloma va shogirdlari dialoglaridan iboratdir. Unda Ibn Sino nasihati – nutqi yetakchi o‘rin egallagan. Rivoyat falsafiy, diniy, ma‘rifiy mazmunga boy va asosiysi bunda bir necha tibbiy tushunchalar berilgan. Ibn Sinoning kasallanib qolishi, shogirdlari, do‘stlari unga yaxshi so‘z aytib, ko‘ngil ko‘tarishlari insoniy hurmat, odob-axloq qoidalaridandir.

Ibn Sinoning shogirdlariga aytgan nasihatlarida ham keng chuqur falsafiy qarashlar bor. Juda ko‘plab kasallarni davolagan, ya‘ni buyuk bir tabibning ham kasallanib qolishi, o‘z o‘limining yaqinlashib qolganini mardonavor tan olishi, o‘lim barcha uchun ertami-kechmi muqarrar ekanligini anglash mumkun.

Matnda allomaning: “Bordi-yu kunim bitib, vafot etsam, yig‘i-sig‘i qilib o‘tirmanglar, faqat haqqimga duo qilib, onda-sonda qabrimni ziyorat qilsalaring bas”, – deb qilgan vasiyati bu dunyo o‘tkinchiligi, o‘tganlar haqqiga duo qilib, qabrini ziyorat qilish insonlar burchi ekanligi, ma‘naviy qadriyat haqida ta‘limot

¹ Hasanboyeva O. va bosq. Pedagogika tarixi. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2004. – B.57.

² O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 7-tom. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2004. – B.323.

³ Uzviylashtirilgan Davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturi. – Toshkent, 2010.

berilgan. Matn nomi “Ibn Sino shogirdlari” deyilganda aynan shogirdlar haqida emas, balki matnda aytilayotgan “eng zo‘r tabiblar” so‘zlariga ma’juziy ishora berilgan. Rivoyatda aytilishicha, Ibn Sino o‘limidan so‘ng beshta zo‘r tabibni qoldirib ketayotgani va shu tabiblarning maslahatiga har doim amal qilinsa, kasallanish u yoqda tursin, bevaqt o‘lim ham orqaga chekinishi haqida so‘z boradi. Besh zo‘r tabib: “tozalik, parhez, badantarbiya, mijoz va kayfiyat”lardir. Matnda salomatlik uchun foydali maslahatlar bilan birga tibbiy tushunchalar ham berilgan.

Tozalik oddiy gigeniya qoidalari ekanligini hamma yaxshi biladi. O‘quvchilar uchun parhez, mijoz so‘zlari notanish bo‘lib, quyidagicha sharhlanadi: Parhez – bu tartibli va me’yorli ovqatlanish, mijoz esa insonning ichki holati, yani issiq yoki sovuq mijoz bo‘lishi, ovqatlanishda shunga e’tibor berib ovqatlanish kerakligi tushuntirib o‘tiladi.

Yuqorida keltirilganidek, rivoyatda Ibn Sinoning shunday gapi bor: – “Mana shu aytganlarimga amal qilinsa, kasallanish u yoqda tursin, bevaqt o‘lim ham orqaga chekinadi”. Bu gapda ham chuqur falsafiy ma’no borki, kasallanishga ham, bevaqt o‘limga ham insonning o‘zi sababchiligi, sog‘lig‘i uchun har bir odam o‘zi qayg‘urishi darkorligi uqtiriladi. “Bevaqt o‘lim tushunchasiga ham e’tibor beradigan bo‘lsak, o‘lim haq, ertami-kechmi hammaning boshida bor, lekin bevaqt o‘limga inson o‘zi sababchi ekanligi, umrni uzaytirish, uni mazmunli o‘tkazish mumkinligini anglash lozim. Umuman olganda, rivoyat g‘oyaviy, ma’naviy-falsafiy qarashlarga boy bo‘lib, mazmunan axloq va odobning me’yorlari targ‘ib qilingan.

Bu mavzuni o‘tishda o‘qituvchi darsni yanada qiziqarli bo‘lishi uchun darsning mustahkamlash qismida oldindan tayyorlangan 5 nafar o‘quvchini chiqarib, ularga nom beradi: 1-tozalik, 2-badantarbiya, 3-parhez, 4-mijoz, 5-kayfiyat. Ular Ibn Sino qoldirgan zo‘r tabib deb tanishtiriladi. Shu o‘rinda tabiblik kasbiga ham ta’rif berib o‘tiladi. Har bir tabib nomini olgan o‘quvchi o‘zi haqida bolalarga ma’lumotlar beradi:

Birinchi tabib – tozalik. Bu oddiy gigeniya qoidasidir. Bugungi kunda juda ko‘plab kasalliklar sababchisi bo‘layotgan turli xil gijjalar, viruslarning yuqishi tozalikka rioya qilmaslik oqibatidadir. Qo‘lni yuvish qoidalari, og‘iz, boshni yuvib yurish, vaqtida yuvinish, tirnoqlarini doimo ozoda tutish, orasta kiyinish, toza suv, pokiza idishlardan foydalanish, meva-sabzavotlarni yuvib ishlatish haqidadir.

Ikkinchi parhez. Ko‘pchilik ozish uchun yoki kasallikdan keyin davolanishni tushunadi. Matnda ko‘ringan ovqatni yeyavermaslik, apil-tapil ovqatlanmaslik, ovqatlanishda parhez me’yorini bilish deya, bola tilida xos sodda qilib beriladi. . Parhez[f-t] Sog‘liqqa to‘g‘ri kelmaydigan ovqatlardan o‘zini tiyish va uning tartibi. Parhezni kasallikga qarab vrach buyuradi.⁴ Parhez haqida ko‘p gapirish mumkin. Nimani yeyish, qay vaqtda, qachon yeyishni bilish ham bu parhezdir. Foydali taomlar yeyishni, ularni qanday foydali xususiyatlari haqida, noto‘g‘ri ovqatlanish qanday oqibatlarga olib kelishi haqida ma’lumotlarlar berish lozim.

⁴ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Moskva “rus tili” nashriyoti. 1981. 576-bet.

Uchinchi – badantarbiya. Badantarbiya haqida har qancha ko‘p gapirilsa ham shuncha oz. Badantarbiya foydasi haqida ming yil oldin ham, hozir ham keng ma’lumotlar aytiladi. Badantarbiya va uning xususiyati haqida bir qancha ma’lumotlar aytish mumkun. Badantarbiya qilishni odatiy holatga aylantirish, doimo sog‘liq uchun foydali ekanligi, inson o‘z umrini qadrlashi, dangasa bo‘lmasligi, harakatchanlik ijobiy xislat ekanligini, bu doimo ulug‘lanishini uqtirish lozim.

Mijoz haqida, kayfiyat haqida chuqur yondashish zarur. Matnda mijoz kayfiyati deb yozilgan. Bizningcha, mijoz va kayfiyatdir. Mijoz haqida bolalarga tushuncha berish kerak. Mijoz[a] Kishi organizmining o‘ziga xos talabi. Mizoji issiq organizmga issiqlik yoqadigan. Mizoji sovuq organizmga, sovug‘lik yoqadigan kishi.⁵ Ibn Sino ham kishilarni avval mijozini aniqlab, keyin shunga mos dorivor giyohlar bilan davolagan. Keyinchalik meditsina tabobat bilan kelisholmay qolgan davrlar ham bo‘ldi. Hozirgi davrda meditsina ham mijozga qarab davolashni yoqlab chiqmoqda. Bu tushunchalar bolaga og‘irlik qiladi. Lekin insonlar har xil issiq, sovuq mijozli bo‘lishi, issiq va sovuq mijozlarga o‘ziga xos taomlar yeyish, qanday kiyinish, ovqatlanish tartibi borligi aniqlandi. Xalqona tilda aytganda, “sovug‘i oshib ketibdi” degan so‘z ma’nosini izohlab bera oladi. Chunki bolalarda har xil narsalar yeyish orqali, ko‘ngil qayt qilish hollari bo‘ladi. Bu holatlarni bolalarga tibbiy tomonlarini ham tushuntirib o‘tish lozim. Shunda bola o‘z organizmda bo‘layotgan o‘zgarish va uning sabablarini tushunib oladi.

Beshinchi tabib – kayfiyat. Inson kayfiyati har doim sog‘lig‘iga ta’sir qiladi. Har doim kulib yurish, bekordan bekorga xafa bo‘lmaslik hamda boshqalar kayfiyatini ham buzmaslik, yaxshi muomala, muloyimlik inson umriga umr qo‘shadi. Urishish, jahldorlik va boshqalarni xafa qilishning salbiy oqibatlari inson umriga ta’sir qiladi. Doimo xushchaqchaq bo‘lib yuruvchi insonlarni do‘sti ko‘p bo‘ladi, ishi doimo oldinga yuradi. Dars mavzusini odobnoma, salomatlik alifbosi, ona tili, tabiat (tarix, biologiya fanlari elementlari) darslari bilan integratsiyalash mumkun.

Xulosa qilib aytganda, “Ibn Sino shogirdlari” rivoyati bolalar ong-shuurida ma’naviy-madaniy qarashlarini, falsafiy fikrlashlarini tafakkurini o‘stiradi hamda ulug‘ allomalar hayoti va ijodiga bo‘lgan hurmatni, qiziqishlarini yanada ortirishga xizmat qiladi. Bu rivoyat nafaqat bolalar uchun, balki kattalar uchun ham birdek qiziqarli va e’tiborlidir. Bugungi kunda ham Ibn Sino ta’limoti jahon meditsinasida chuqur hurmat bilan tilga olinadi, o‘rganiladi va o‘rgatiladi. Kasallikni davolashdan ko‘ra uni oldini olish darkorligini jahon meditsinasida keng targ‘ibot qilinmoqda. Aynan shu matndan ham shuni anglash mumkun. Zeroki 1000 yil oldin yashab o‘tgan ulug‘ allomamiz boy merosi hozirgi zamonda ham dolzarbligi va ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. O‘qituvchi bu dars mavzusini o‘rgatishda bolada buyuk vatandoshlarimizga cheksiz hurmat, ular ijodini o‘rganishga yanada qiziqish orttirishi va buyuk insonlardek bo‘lishga intilish, o‘qib-o‘rganishdan also charchamaslik tuyg‘ularini shakllantirish va tarbiyalashi lozim.

⁵ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Moskva “Rus tili” nashriyoti. 463-bet.